

INNOVATSION USULLARIDAN FOYDALANISH ORQALI TALABALAR DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISH

Teshayev Azizbek To`ynor o`g`li

Buxoro davlat universiteti

Boshlang`ich ta`lim metodikasi kafedrasida doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Oliy ta’lim jarayonida innovatsion usullardan foydalanish orqali talabalar dunyoqarashini, shaxsiy va kasbiy sifatlarini oshirish masalalari, darsda interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o’quv jarayonida qo’llash, ta’lim berishda amaliy faoliyatga alohida e’tibor qaratish, talabalarning dunyoqarashi rivojlantirishda pedagogning menenjerlik kompetentligi, talabaning ta’lim-tarbiya jarayonida faolligi o’z oldiga aniq maqsad qo’yishi, muammolar echimini topishida zarur usul va vositalardan foydalanish shaxs dunyoqarashini rivojlantirish omili ekanligi haqida nazariy ma’lumotlar va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit soʻzlar: dunyoqarash, ilmiy dunyoqarash, mustaqil fikr, ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi, interfaol metod, innovatsiya, vositalar, faoliyat.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы повышения мировоззрения, личностных и профессиональных качеств студентов посредством использования инновационных методов в высшем образовании, использования интерактивных методов на уроке, инновационных технологий, педагогических и информационных технологий в учебном процессе, акцентирования внимания на практической деятельности в образовании, менеджерской компетентности педагога в развитии мировоззрения учащихся, активности студента в учебно-воспитательном процессе. Ясно впереди постановка целей, приведены теоретические данные и рекомендации о том, что использование необходимых методов и средств в поиске решения проблем является фактором развития мировоззрения личности.

Ключевые слова: мировоззрение, научное мировоззрение, самостоятельное мышление, социально активная гражданская компетентность, интерактивный метод, инновации, инструменты, деятельность.

Annotation: in this article, through the use of innovative methods in the process of higher education, issues of improving the worldview, personal and professional qualities of students, interactive methods in the lesson, the application of innovative technologies, pedagogical and information technologies in the educational process, special attention to practical activities in education, the competence of the educator in the development of the, theoretical data and recommendations are presented that the use of the necessary methods and tools in finding solutions to problems is a factor in the development of an individual's worldview.

Keywords: worldview, scientific worldview, independent thought, socially active civic competence, interactive method, innovation, tools, activity.

Yangi O‘zbekiston sharoitida tabiiy-tarixiy jarayon mustaqil tafakkur ehtiyojini kuchaytiruvchi ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy-g‘oyaviy omillarni paydo qildi. Ayniqsa, yoshlarda mustaqil va erkin fikrlashni shakllantirish dolzarb vazifaga aylanib, muammoga tamomila yangicha yondashuvni taqozo qilmoqda. Yoshlarda mustaqil tafakkurni qaror

toptirish milliy istiqlol g‘oyasini halqimiz ongi va qalbiga singdirishning tarkibiy qismi bo‘lib, ilmiy tadqiqotlarda ham teran tahlil etilib, amaliy hulosalar chiqarilgan. Hayotga kirib kelayotgan yoshlarda mustaqil fikr, mustaqil qarash, mustaqil faoliyat yuritish ko‘nikmalarini tarkib toptirish zamonning asosiy talablaridan biridir.

Mustaqil tafakkur qamrovi nihoyatda keng, mazmunan chuqur, shaklan xilmaydirdir. Mustaqil fikrlovchi erkin shaxs aql-idroki va tafakkuri bilan jamiyat tomonidan to‘plangan madaniy boyliklarda ifodalangan yutuqlarni va shu bilan birga ijtimoiy ong shakllarini, kishilar g‘oyalarini, qarashlari, tasavvurlari, odob-axloqi, butun ma’naviy olamni qamrab oladi.

Insoniyat tomonidan uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida yaratilgan va rivojlantirilgan ma’naviy boyliklar, ijtimoiy ongning ilmiy, badiiy, huquqiy, diniy, axloqiy, falsafiy va boshqa shakllari, dunyoqarashning istiqboldagi rivojini ham mustaqil tafakkur ishtirokisiz tasavvur qilish mumkin emas.

Xususan, oliy pedagogik ta’lim tizimini olsak, shunisi aniqki, mustaqil fikrlash o‘zining samaradorligi, dolzarbligi, universalligi bilan talabani komillik sari etaklaydi. Mustaqil fikrga ega bo‘lish aqlning pishiq-puxtaligi va tanqidiyigidan nishonadir. Talabani ta’lim-tarbiya jarayonida faolligi o‘z oldiga aniq maqsad, yaqqol vazifa qo‘yishi, uni amalga oshirishda yuzaga kelgan muammolar echimini topishi va nihoyasiga etkazishida zarur usul va vositalarni shaxsan o‘zi tanlashida namoyon bo‘ladi. Komillikni maqsad qilib olgan talaba yoshlar ajdodlarimiz yaratgan ma’naviy boyliklar sohibi bo‘lib shakllanishi hamda kelajak rivojini ta’minlashi uchun mustaqil fikr yuritishga o‘rganishlari lozim.

Oliy ta’lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llash, ta’lim berishda amaliy faoliyatga alohida e‘tibor qaratish, berilgan topshiriqlarni talabalar tomonidan mustaqil bajarishga imkoniyat yaratish bo‘lajak mutaxassilarning kompetentligini oshirishni ta’minlashga xizmat qiladi.

Ta’lim sifatiga erishishda talabalarga tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatish emas, balki egallayotgan bilimlarni o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni o‘zlari keltirib chiqarishlariga e‘tibor qaratish zarur.

Pedagog bu jarayonga shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olish va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta’lim jarayonida talaba asosiy bo‘g‘inga aylanadi. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o‘qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o‘zgarishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda asosan, interaktiv metodlardan to‘liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar – bu jamoa bo‘lib fikrlashdan iborat, ya’ni u pedagogik ta’sir etish usullari bo‘lib, ta’lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi[1]. Bu metodlarning o‘ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va talabalarining birgalikda faoliyat ko‘rsatishi orqali amalga oshirilib ularning dunyoqarashini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Dunyoqarash - insonning yoshi, hayotiy tajribasi, bilimi, mafkurasini belgilovchi tushuncha hisoblanib, jamiyatda shakllangan falsafiy, ilmiy, diniy, siyosiy, axloqiy, huquqiy, estetik bilimlar, qarashlarni o‘zida aks ettiruvchi inson darajasini belgilovchi mezon hisoblanadi. Aynan uzluksiz ta’lim jarayonida shaxs dunyoqarashi shakllanadi, innovatsion ta’lim muhiti ta’sirida rivojlana boradi.

Ta’limni innovatsiyalash - ta’lim-tarbiyaning pedagogik-psixologik maqsadlarini amalga oshirishga yo’naltirilgan zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish va ularni yaratish amaliyoti va metodologiyasi bilan ta’lim sohasini ta’minlash orqali talabaning dunyoqarashini rivojlantirishni uzluksiz ravishda ta’minlab boradi. Ya’ni,

-birinchidan, ilmiy-pedagogik ma’lumotlar bazasidan foydalanish asosida talabalar o’zlashtirishi kerak bo’lgan bilim, ko’nikma va malakalarni puxta egallashga imkoniyat yaratadigan ta’lim metodlarini takomillashtirish;

-ikkinchidan, zamonaviy axborot jamiyatida shaxsni rivojlantirish maqsadlarida ta’lim-tarbiyaning tashkiliy shakllari va metodlari, mazmunini tanlash va metodologiyasini ehtiyojlarga asoslanib boyitib borish;

-uchinchidan, talabani intellektual salohiyatini rivojlantirishga, unda mustaqil bilim olish malakasini shakllantirishga yo’naltirilgan o’qitishning metodik tizimini yaratish;

-to’rtinchidan, talabalar bilimni nazorat qilish va baholashning diagnostik metodlari va kompyuter testlardan foydalanishni va ularni yaratishni tezlashtirgan holda kasbiy hamda shaxsiy sifatlarini boyitishga xizmat qiladi.


Oliy ta’lim jarayonida ta’limni axborotlashtirish va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish o’qitishning nafaqat tashkiliy shakllari va metodlari o’zgarishini, balki o’qitishning yangi metodlarini takomillashishiga [3] olib keladi. Bunda,

- ta’lim - bilimni olishga, o’z-o’zini rivojlantirishga o’rgatish;
- tarbiya berish - o’rnak, nasihat, ibrat-namuna, ma’naviy kompetentlilik;
- rivojlantirish - to’g’ri yo’naltirish, mashq, harakat, shaxsiy sifatlarini tarkib toptirish;

- sog’lomlashtirish - ma’naviy, jismoniy, sog’lom turmush tarziga amal qilish;

ijtimoylashtirish - hayotda o’z o’rnini topish, sog’lom dunyoqarashga ega bo’lish kabilardan iborat.

Innovatsion usullaridan foydalanish orqali talabalarning dunyoqarashi rivojlanib, sifatli ta’lim jarayonida bir qator ko’nikmalarga ega bo’lishadi (1-rasmga qarang).



1-rasm. Innovatsion ta’lim muhitida talabalarda shakllanadigan ko’nikmalar

Oliy ta’lim jarayonida innovatsion usullaridan foydalanish orqali talabalarning dunyoqarashi rivojlantirishda pedagogning menenjerlik kompetentligi quyidagi holatlarda namoyon bo’ladi:

- Tarbiyaviy ma’naviy-madaniy faoliyati: Mehribonlik, muloqotga kirishuvchan, emotsional turg’unligi, bag’rikengiligi, adolatli, vijdonli, samimiy, halollik, ma’naviyatni anglash, o’z-o’zini nazorat eta olish, imon-e’tiqodli, irodali

- Shaxsiy kasbiy faoliyati: Bilimdonlik, ijodkor bo’lish, mahoratli, kompetentli intellektual salohiyati, raqobotbardosh, AKT (axborot texnologiyalarni) egallagan, faol, fan yangiligidan xabardor, DTS talablarini to’la bajarishini ta’minlash.

- Ilmiy faoliyati: Ilmiy izlanish, yangi ishlanmalar yaratish, ilmiy-tadqiqot olib borish, tajriba-sinovlar o’tkazish, ilmiy maqola, ilmiy rahbarlik olib borish.

- Innovatsion psixo-pedagogik, metodologik faoliyati: Yangiliklarni yaratish, topish, bankini yaratish, tatbiq etish, tarqatish, yangiliklar ustida ish olib borish, yangi texnologiyalarni joriy etish, reproduktiv, evristik, kreativ, refleksiya asosida ish yuritish.

Oliy ta’lim jarayonida innovatsion vositalar asosida talabalarning bilimlarni o’zlashtirishidagi kasbiy shakllanishiga ijobiy ta’sir ko’rsata olish o’quv materialining mazmuni to’liq o’zlashtirish hamda uning ongida aqliy faoliyat hamda ilmiy dunyoqarashni rivojlantirishni ta’minlaydi.

Buning uchun mavzuning mazmuni axborot shaklidagi tushunchalardan muammoli savol, vazifa, topshiriq va vaziyatlarga aylantiriladi. Talaba oldiga muammo qo’yilganda uni hal etish, echimini topishga xohish tug’iladi. Xuddi shu holatda talabada aqliy faollik namunalari paydo bo’ladi. Uni ro’yobga chiqarishda interfaol metodlar o’zining samarali natijasini beradi. Mustaqil fikr-mulohaza insonda mavjud bilimlarni, fikr va voqelikka bo’lgan munosabatlarning erkin yuzaga chiqarilishidir. Albatda, ushbu jarayon o’z o’zidan ro’yobga chiqmaydi, ayniqsa ta’lim-tarbiyada. Ma’lumki ta’limo’qituvchi va talaba orasida o’rnatiladigan pedagogik munosabatlar majmuidir. Ana shu munosabatlarda o’zaro ishonch, talab va tartib muhimdir, ya’ni talabalar ilmiy dunyoqarashini shakllanib boradi, ilmiy qarashlari mukamallashadi. Yangicha yondashuv jarayonida bilim talabalarning o’z ijtimoiy tartiblari asosida paydo bo’ladi va xulq-atvor shaklini ham o’zgarishiga ta’sir qiladi. Ayniqsa ta’limni muammoli tashkil etish talaba o’quv faoliyatiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi.

Sifatli ta’lim masalasi, avvalambor, intellektual salohiyatga ega, zamonaviy bilim, texnologiyalar bilan qurollangan, teran tafakkurli, dunyoqarashi keng muallimga bog’liqdir. Jamiyat taraqqiyoti inson omiliga bog’liq ekan, uning saviyasini, bilim va salohiyatini yuksaltirish eng dolzarb masalaga aylanadi.

Shiddat bilan o’zgarayotgan zamonaviy dunyoda, rivojlangan davlat maqomiga etishish uchun aholining bilim saviyasi va dunyoqarashi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa mamlakatda ta’lim tizimining to’g’ri kompetensiyalari, hayotiy muhim kasb va etuk bilimlarni shaxsiy, axloqiy hamda fuqarolik fazilatlarini uyg’unligida yoshlarga o’rgatishni taqozo qiladi.

Ta’lim berishning ham o’ziga xos mashaqqati, rohati, muhim usul va uslublari bor. Bilish boshqa, uni etkazish va unga amal qilish boshqa. Chunki ilmu amal birlikda bo’lmasa, samara haqida gap bo’lishi mumkin emas. Sifatli ta’lim masalasi, avvalambor, intellektual salohiyatga ega, zamonaviy bilim, texnologiyalar bilan qurollangan, teran tafakkurli, dunyoqarashi keng muallimga bog’liqdir. Buning uchun muallim jahon miqyosidagi eng so’nggi sohaviy yangiliklar va bilimlarni puxta o’rganib borishi, malakali

o‘qituvchilar tajribasini muntazam o‘zlashtirishi, xorijlik etuk mutaxassislar bilan hamkorlik rishtalarini bog‘lashi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Begimkulov U.SH. Pedagogik ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy - nazariy asoslari. Monografiya. -T.: Fan, 2007.
2. Ш. Кузиев, С. Рахмонова - Дистанционное обучение и технология - будущее национального образования. “Фзбекистонда хорижий тиллар” илмий-методик электрон журнал, №1/2018.
3. Quronboev Q.Q “Talabalarning ma’naviy – ijtimoiy faolliklarini rivojlantirishning pedagogik asoslari (Yoshlar tashkilotlari misolida)”: Ped.f.n...diss. – T.: O‘zPFITI, 2000 y.
4. Teshayev A. Tarix fanini innovatsion pedagogik texnologiyalar orqali o‘qitish. Ta`lim va innovatsion tadqiqotlar. 2023/7. ISSN 2181-1709 (P) 4 bet
5. Teshayev A. Bo‘lajak pedagoglarda tarix fanini o‘qitish orqali milliy iftixor tuyg‘usini shakillantirish texnologiyalari. Golden brain. ISSN: 2181-4120 volume 1 | issue 26 | 2023.